



BIRINCHI RENESSANS DAVRIDA SHARQ UYG‘ONISH DAVRI ALLOMALARI FALSAFIY- SIYOSIY QARASHLARI

*Tuxtamurodova Ruxsora Xasan qizi,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Xalqaro Jurnalistika fakulteti,
Siyosatshunoslik yo‘nalishi 1-kurs talabasi.*

Annotatsiya: Mazkur maqolada uyg‘onish davri Sharq mutafakkirlarining falsafiy-siyosiy fikrlari bayon etilgan. Shuningdek, ularning jamiyat, davlat, hukmdorning qanday fazilatlariga ega bo‘lish kerak ekanligi, insonning mohiyati, tabiat va olamga oid fikrlari tahlil qilingan va ularning bugungi kunda ahamiyati bizning jamiyatimizda o‘z o‘rniga ega ekanligini, butun dunyoda ularning qimmatli manba ekanligini yoritib beradi.

Kalit so‘zlar: uyg‘onish davri, inson, inson mohiyati, kishilik jamiyati, davlat, ma’naviy boylik, inson ongi, jamiyat, gumanizm, ideal davlat.

Abstract: This article describes the philosophical and political thoughts of Eastern thinkers of the renaissance period. Also, their thoughts about the qualities of a society, state, and a ruler, the essence of a person, nature, and the world are analyzed, and their importance today has a place in our society, and it is highlighted that they are a valuable resource in the whole world.

Key words: renaissance period, man, human essence, individual society, state, spiritual wealth, human mind, society, humanism, ideal state.

Аннотация: В данной статье описаны философско-политические мысли восточных мыслителей периода Возрождения. Также анализируются их мысли о качествах общества, государства и правителя, сущности человека, природы и мира, их значение сегодня имеет место в нашем обществе, и подчеркивается, что они являются ценный ресурс во всем мире.

Ключевые слова: эпоха Возрождения, человек, человеческая сущность, отдельное общество, государство, духовное богатство, человеческий разум, общество, гуманизм, идеальное государство.

Kirish va dolzarbligi. Uyg‘onish davri - insoniyat tarixidagi ijtimoiy-ma’naviy yuksalish, ilm-fan rivojini ifodalash uchun XVIII asr ma’rifatparvar faylasuflari tomonidan kiritilgan tushuncha hisoblanadi. Bu davr insoniyat ma’naviy taraqqiyotidagi ijobiy o‘zgarishlar yuz bergan davr deb tushuniladi. Jumladan, Sharqda Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Muso al-Xorazmiy, Ahmad Yassaviy, Ismoil Buxoriy, Mirzo Ulug‘bek va boshqa buyuk siymolar keying avlod uchun noyob meros qoldirgan.

Sharqda IX-XII asrlarda ya’ni Renessans davrida bir qator mutafakkirlar falsafiy-siyosiy g‘oyalari g‘oyat katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ularning falsafiy-siyosiy g‘oyalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Sharq allomalarining davlat boshqaruvi, jamiyat, fuqarolik jamiyati, huquq to‘g‘risidagi qarashlari asosan din bilan bog‘liqligiga ham guvoh bo‘lishimiz mumkin. Chunki O‘rta Osiyo

falsafasi Zardushtiylik, keyinchalik islom dini ta’sirida shakllanganligi barchamizga ma’lum. Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va boshqa mutafakkirlarning falsafiy asarlari tafakkur xazinasini boyitdi; olam, odam va jamiyat tushunchalarini yaxlit shaklda tadqiq qilib, yangi qonuniyatlar ochdi, aqliy bilim ufqlari kengaydi, dinga asoslangan holda fozil jamiyat, fozil davlat va komil inson nazariyasini ishlab chiqishdi. Buyuk allomalarimizning noyob falsafiy asarlari, jamiyat, inson va davlat boshqaruvi to‘g‘risidagi fikrlari bugungi hayotimiz uchun ham zarur ekanligini anglashimiz zarurdir. Shu o‘rinda mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan “Uchinchi Renessans - Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi ilgari surildi va qo‘llab-quvvatlandi.

Undan tashqari, Uchinchi Renessansning ilmiy-ma’naviy poydevorini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy-diniy



qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, mamlakatning islom svilizatsiyasini rivojlantirish borasidagi rolini yanada oshirish hamda buyuk allomalarning jahon tamadduniga qo'shgan hissasini milliy va xalqaro miqyosda ommalashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qaror qabul qilingan edi.[1] Mazkur qonunda mamlakat tarixining yangi yuksalish davridagi yutuqlarini ilmiy asosda o'rganish, uni keng jamoatchilikka yetkazib berish, yoshlarni ilm-fanga qiziqtirish, noyob merosimizni xalqaro darajada ommalashtirish, O'zbekistonda yuz bergan umummilliy yuksalishlar, tarixiy renessanslarning mazmun-mohiyatini mamlakat aholisiga yetkazib berish masalalari asosiy o'rin egallaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Bu maqolada Ibn Sinoning "Tib qonunlari" va "Kitob ash-shifo" asarlari, Beruniyning "Hindiston" asari, Farobiyning "Fozil odamlar shahri", "Baxtga erishish haqidagi risola", "Fuqarolik siyosati", "Davlat arbobining hikmatlari", "Urush va tinch-totuv yashash haqida", "Jamiyatni o'rganish haqida" va boshqa asarlardan foydalanilgan. Mazkur maqolada yuqorida berilgan asarlardagi asosan davlat, jamiyat, fuqaro va ularning huquqlari to'g'risidagi fikrlarni uchratishimiz mumkin.

Tahlil va natijalar. Uyg'onish davri mutafakkiri, qomusiy olim, tabib va faylasuf Abu Ali Ibn Sinodir (980-1037). Uning asarlarida ilmiy teranlik, tabiatni o'rganishdagi tajribaga asoslangan ijodiy yechim, falsafiy tahlil kengligi, mehnatkash inson manfaati haqida qayg'urish chuqur va uzviy bog'liqligi ko'zga tashlanadi. Bunga misol qilib qomusiy olimning 5 jildan iborat "Tib qonunlari" asarini olishimiz mumkin. Mazkur asar XVII asrgacha Yevropada foydalanilib kelindi. Abu Ali ibn Sinoning qarashlaridagi ko'plab narsalar bugungi kundagi tushunchalarga hamohangligi va dolzarbligi bilan boshqa uyg'onish davri mutafakkirlaridan ajralib turadi. Hatto uning g'oyalari zamonaviy ilmiy bilimlar xazinasiga ham kiritilmoqda. U olamning abadiyligi va olam hech qachon yo'qolib ketmasligini ta'kidlaydi. X-XI asrlarda yashab ijod qilgan buyuk faylasuf va tabibning falsafiy qarashlarida ruh, aql, ilohiy va lazzat tushunchalari asosiy o'rinni egallaydi.

FAN, JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR

Volume 1 Issue 10 April 2024

Undan tashqari, Abu Ali ibn Sinoning davlat, jamiyat va davlat boshqaruvi to'g'risidagi fikrlari ham e'tiborga loyiqdir. Uning fikricha, ayrim hukmdorlar g'iybatchi, ikkiyuzlamachi va chaqimchi insonlarni atrofga to'plab oladilar va to'g'ri so'z va haqiqatni yoqtirmaydilar. Abu Ali ibn Sino odil va oqil hukmdorlarni orzu qildi va hukmdorlar atrofiga sadoqatli, aqlli kishilarning to'planishini, hukmdorlarga to'g'ri yo'l ko'rsatishini, to'g'ri maslahatlar berishi kerak ekanligini ta'kidlaydi.[2]

Demak, davlat va jamiyat hayotiga nazar tashlasak, davlat boshlig'i atrofidagi insonlarning adolatli, xalq manfaatini ko'zlab ish yuritadigan, vaqti kelganda to'g'ri maslahatlar bera oladigan kishi bo'lishi bu mamlakat hayotiga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Abu Ali ibn Sino Aristotel, Platon va Farobiyning fikr va qarashlarini o'rgandi va rivojlantirdi, o'z asarlarida ideal davlat xususiyatlarini ko'rsatdi. Birinchidan, mehnat organizm chiniqishining zarur shartidir. Mehnat qilish orqali inson o'zini namoyon qila oladi. Buning uchun inson ideal davlatda faqat o'zi uchun mehnat qilishi shart bo'ladi. Ikkinchidan, ideal davlatda misli ko'rilmagan katta boylik ham, qashshoqlik ham bo'lmaydi; ideal davlatda hamma mehnat bilan shug'ullanadi. Agar insonlar savdo bilan shug'ullansa, davlatlar o'rtasida urush kelib chiqmaydi, urushlar yo'qoladi, davlatlar o'rtasidagi tushunmovchiliklar esa tinch yo'l bilan hal etiladi.

Ulug' mutafakkir jamiyatni iqtisodiy ahvoli va ijtimoiy boylikdan qancha ulush olishiga qarab turli tabaqa va guruhlariga ajratdi. Olimning fikricha, agar hamma podshoh va mashhur bo'lsa, ular och qoladilar, agar hamma qaram ishchilar va itoatkor fuqarolar bo'lganida, ya'ni hukmdorlar bo'lmaganda, ular halok bo'lishini ta'kidlaydi. Shuningdek, agar hamma odamlar mol-mulk va boylik jihatdan teng bo'lganida, aholi bir-biriga yordam bermagan, bir-biriga hadya bermagan bo'lardi va bir-biri uchun mehnat qilmas edi deydi. Agar hamma kambag'al va nochor bo'lsa, ular ochlik va muhtojlikdan qirilib ketgan bo'lardi. Bu qarash bilan olim insonning mol-mulk darajasi va martabasi ijtimoiy hayotda asosiy o'rinni egallaydi. Mutafakkir bu bilan jamiyatda barcha



insonlar teng tabaqada bolmasligi kerak ekanligini keng ma'noda izohlaydi. Agar mamlakatda hamma fuqarolar katta mol-mulkka ega bolsa va hamma narsa yetarli bolsa, hech kim mehnat qilmaydi va oziq-ovqat tanqisligi paydo bolishini ta'kidlaydi. Agar mamlakatda boshliq bolmasa, ya'ni barcha fuqarolar qaram ishchilar yoki qullardan iborat bolsa, mamlakatda yagona boshqaruv bo'lmaydi va boshqaruvning yo'qligi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini izohlaydi. Ibn Sino bu bilan davlat boshqaruvi qanchalik muhim ekanligiga urg'u beradi.

Shuningdek, jamiyatda barcha turli tabaqalardan iborat bo'lishi kerak degan fikrni qo'llab-quvvatlaydi.

Ibn Sino fikriga ko'ra, davlatni boshqarishda hukmdorlar qalbi pok bo'lishi siyosatning asosiy prinsipidir. Bu masalaga alohida to'xtalib shunday ta'rif beradi: "Hukmdorlar oddiy xalqqa nisbatan ko'nglini, qalbini poklashga, ma'naviy kamolotga ko'proq muhtoj bo'ladi, chunki oddiy odamlarning xatti-harakatlari va odob-axloqlari davlat uchun unchalik xavfli emas, ammo hukmdorlar esa yomon qonunlar chiqarishi yoki yaxshi qonunlarni nojo'ya tatbiq qilishlari mumkin".[3]

Shunday qilib, Ibn Sino hukmdorning fuqarolarga nisbatan adolatli va qalbi pok bo'lishi mamlakat ijtimoiy hayoti uchun naqadar muhim ekanligiga urg'u beradi. Uning fikriga ko'ra, mamlakatda istiqomat qiluvchi odamlarning o'zining tutishi, odobi, xatti-harakatlari jamiyatda unchalik ham ahamiyatga ega emasligini, ammo davlat boshlig'i bundan mustasno ekanligini va davlatga ta'siri kuchli ekanligini ta'kidlaydi.

Ibn Sinoning falsafa faniga qo'shgan hissasi ham nihoyatda muhimdir. Olimning falsafaga oid eng mashhur asari "Kitob ash-shifo" bolib, mazkur asarda u bir necha qismlardan iborat. Undan tashqari, u Sharq va G'arb olimlari o'rtasida bahs shaklida ham kitob yozadi: "Men "Insof" nomli kitob yozdim. Bu kitobda men olimlarni ikki guruhga ajratdim: mashriqiyun va g'arbiyun. Ular o'zaro bahslashadilar. Har bir bahsda ular o'rtasida ziddiyatni ko'rsatdim, undan keyin bahsli muammoni adolatli hal etish yo'lini aniqladim." Lekin, bu yigirma jildlik kitob yo'qolgan.

Mazkur asarda olim yunon fani va falsafasiga tanqidiy va ijodiy yondashishni tavsiya etadi. Yo'qolgan kitoblarda Platon, Aristotel va boshqa yunon faylasuflari asarlaridagi idealizm va yana boshqa kelishmovchiliklar haqida fikr yuritilgan bo'lishi mumkin deb faraz qilamiz.[4]

Ibn Sino falsafa fanida ko'rish ta'limotini ishlab chiqdi. Bu jarayonda u Platonning bu boradagi fikrlari asossiz ekanligini ko'rsatadi. Ibn Sino yorug'likni ko'rishni asosiy vositasi deb hisoblaydi va miyani esa aks ettirish faoliyatining bosh apparati deb talqin qilib, Ibn Sino hissiy bilish shaklini miya bilan bog'laydi.

Bundan ko'rinib turibdiki, inson ko'rish uchun yorug'lik asosiy element ekanligiga, sezgi a'zolari miyada joylashganligini va miya tomonidan boshqarilishini e'tirof etadi. Inson tanasini miya boshqaradi degan g'oyani ilgari suradi.

X asrda yashab ijod qilgan, zamonasining deyarli barcha ilmlarini puxta egallagan buyuk olim va faylasuf Abu Rayhon Beruniydir (973-1048). Abu Rayhon Beruniyning asarlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan chunki u o'z asarlarida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan. Abu Rayhon Beruniy xalqlar o'rtasida umumiy tinchlik va do'stlik uchun kurashdi. Urushlar natijasida madaniyat va fan erishgan yutuqlar yo'q bo'lib ketishini ta'kidlaydi. O'zining nodir "Hindiston" asarida urushlarni, xalqlar o'rtasidagi mojarolarni qoralab, urush kelib chiqishining asosiy sababi xalqlarning bir birini tarixini bilmasligidandir deya ta'kidlagan. Buyuk mutafakkir ham tarix fanining davlat uchun naqadar muhim ekanligini izohlagan. Abu Rayhon Beruniyning insonlar va jamiyat to'g'risidagi qarashlari insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan edi. Bu qarashlar jamiyatda sodir bo'layotgan voqealarga aql ko'zi va mulohazali tafakkur bilan yondashish natijasi edi. Uning qarashlarida jamiyat taraqqiyotida ilm-fan eng asosiy omil deya aytiladi ya'ni fan jamiyatni tashkil qila oladigan; ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi kuchdir va ilm-fan tufayli jamiyatda axloqiy asoslar paydo bo'ladi. Insoniyat yaratgan ma'naviy boylik inson ongini xurofotlar va bid'atlardan xalos etadi, johillik va aqidaparastlikdan qutqaradi.



Mutafakkirning insoniyat jamiyatining vujudga kelishi va qaror topishidagi muhim omillar to'g'risidagi fikrlari etiborga loyiqdir. Beruniyning fikriga ko'ra, inson hayvonot dunyosidan o'zining aqli bilan farq qilib turadi. Aql insonga Alloh tomonidan ato qilingandir. Beruniyning ayniqsa insonning mohiyati, tabiiy qonuniyat haqidagi fikrlari qimmatli hisoblanadi. Beruniy jamiyat hayotida moddiy ehtiyojlarning roli to'g'risida qiziqarli fikrlarni ilgari surdi. Uning ta'kidlashicha, jamiyatning vujudga kelishining asosida odamlarning moddiy ehtiyojlari yotadi. Odamlar o'zining yalang'ochligi, ojizligi, himoya vositalarining yo'qligi, boshqalar tomonidan doimiy sinovlarga duchor etilishi natijasida o'z-o'zini himoya qilishga ehtiyoj sezadi. Beruniyning kishilik jamiyati to'g'risidagi qarashlarida kishilik jamiyatining ilmiy-nazariy qonunlari yaratiladi. Jamiyatning ma'naviy va ma'daniy darajasi bevosita yaxshi va yomon odamlarning ko'pligi yoki ozligi bilan belgilanishini ta'kidlaydi.

Ya'ni, allomaning fikricha, agar jamiyatda yaxshi insonlar bolsa, jamiyat yuksaladi, rivojlanadi. Ammo lekin mamlakatda yomon odamlar soni ko'p bo'lsa, jamiyat yuksalishdan yoki rivojlanishdan orqada qoladi. Beruniy jahonda birinchi bo'lib, inson va tabiat, odam va olam o'rtasidagi munosabatlarni dunyoviy fan sifatida talqin qiladi. Turli afsonalar, asotirlarga ishonmaydi va muammoni ilmiy tadqiq qilish yo'lidan boradi. Jumladan, u "(odamlar) tuzilishining rang, surat, tabiat va axloqda turlicha bo'lishi faqatgina nasablarining turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning, (odam) yashaydigan joylarning turlichaligidan hamdir. Tillarning turlicha bo'lishiga sabab odamlarning guruhlariga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli xohishlarni ifodalash uchun zarur bo'lgan so'zlarga ehtiyoj tug'ilishidir. Uzoq zamonlar o'tishi bilan haligi iboralar ko'payib, yodda saqlangan va takrorlanish natijasida tarkib topib, tartibga tushgan", deydi.[5]

Bundan ko'rinib turibdiki, insonlar bir-biridan farq qiladi va ularning farq qilishi ularning har xil oilada tug'ilganligi emas, balki ularning yashayotgan joylari ham katta ahamiyatga ega. Ya'ni ular yashaydigan ma'lum bir joyda tuproq, suv va havo yetarli bo'lsa va

FAN, JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR
Volume 1 Issue 10 April 2024

boshqa bir joy bundan mustasno bo'lsa, u odamlar bir-biridan farq qiladi. Odamlar toplanib kichik bir jamiyatni hosil qiladi va ularning o'z tili, o'ziga xos turmush tarzi rivojlanadi.

Beruniy tillarning turlicha bo'lishi sabablari haqida fikr yuritir ekan, inson ruhiyatining naqadar murakkab ekanligini chuqur angelaydi. Insonlarning alohida yashashi sababli va yana har bir insonda o'z fikrlarini ifodalash uchun kerak bo'lgan so'zlarga ehtiyoj sezishi va bora-bora bu so'zlarning ko'p takrorlanishi natijasida yodda saqlanishi natijasida yangi tillar yaratilganligini, so'zlarning tartibga tushishi jarayonlarini aniq tasavvur qiladi va tushunarli tarzda ifodalaydi.

Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharqning buyuk mutafakkiri, faylasuf va olim Abu Nasr Farobiy (873-951) Sharq va G'arb ilmiy tafakkuri durdonalarini o'z asarlarida mujassamlantirdi; xalq orasida "al-muallim assoniy", "Sharq Arastusi" nomlari bilan ulug'landi. Farobiyning riyoziyot, tabiat, musiqa, mantiq, davlat va huquq masalalariga bag'ishlab yozilgan asarlari bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan va yirik ilmiy markazlarda o'rganilib kelinmoqda. Farobiyning "Baxtga erishish haqidagi risola", "Fuqarolik siyosati", "Davlat arbobining hikmatlari", "Urush va tinch-totuv yashash haqida", "Jamiyatni o'rganish haqida" kabi asarlarida jamiyat, davlat, huquq, siyosat, axloq, ta'lim-tarbiya haqidagi g'oyalar o'z ifodasini topgan. Farobiyning eng mashhur asarlaridan biri "Fozil odamlar shahri" asaridir. Mazkur asar 37 bobdan iborat bo'lib, unda davlat, jamiyat, jamoa, shaxs masalalari keng yoritilgan. Ulug' mutafakkir jamiyatni vujudga kelishi va odamlarning birgalikda yashashlariga urushlar va zo'rliklar natijasida paydo bo'lgan degan fikrni inkor etib, Beruniy singari insonlarning moddiy ehtiyojlari ularning birgalikda yashashida asosiy omil ekanligini da'vo qilgan. Farobiy fikricha, insoniyat kishilarning tabiiy intilishlari, axloqi, urf-odatlari va qadriyatlarini bilan bir-biridan farqlanadi.

Farobiy fikriga ko'ra, jamiyatni boshqarishda elitaning o'rnini katta va u ishonadiki, siyosiy elitaning jamiyatni boshqarishda aqliy salohiyati yetarli bo'ladi va xalqqa ta'sir qila oladi. Shu nuqtai-nazardan qaraydigan bo'lsak, Sayid Muhammad



Xotamiyning quyidagi fikrlarini keltirish joiz deb o'ylaymiz: "Farobiy fikricha faylasuflar jamiyatda birinchi darajali mavqega ega. Falsafa esa dialektika va ritorikadan keyin shakllangan bo'lsa-da, o'zining ahamiyatiga ko'ra ham takomiliga ko'ra ham ulardan afzaldir. Falsafa dinga nisbatan ham birlamchi mavqega ega. Chunki falsafa - mag'iz, din - postloq, aniqrog'i falsafaning quroli. Shu bois ashrafu- a'yonlar (ilmiy elita) darajalari e'tiboriga ko'ra faqihlar va kalomchilar oxirgi o'rinlarda turadi.[6]

Ana shu tarzda Farobiy xalq orasidagi nufuzli, alohida martabaga ega insonlarni jamiyat boshqarishini tarafdori edi. Chunki Farobiy xalq orasida o'z martabasiga ega bo'lgan kishilarni jamiyatni boshqarishda aql-zakovati yetarli bo'ladi va agar boshqaruv ularning qo'lida bo'lsa, jamiyat rivojlanadi deb hisoblagan.

Farobiy davlat boshqaruviga oid fikrlari ham e'tiborga sazovordir. Uning qimmatli asari "Fozil odamlar shahri" kitobida shunday fikrlarni bayon qiladi: "Qonun chiqaruvchining hayot tarzi shahar aholisining hayot tarzi va ularning qonunlariga zid bo'lmasligi kerak. [7]

Demak, mutafakkirning fikricha, mamlakatda fuqarolarning turmush- tarzi, fe'l-atvori, xatti-harakati, bir so'z bilan aytganda, ularning personal qonunlari boladi va qonun chiqaruvchi kishining qonunlari fuqarolarning personal qonunlari, ularning turmushiga teskari bo'lmasligi kerak ekan. Shuningdek, qonun chiqaruvchi fuqarolar orasidan tayinlansa, u munosib qonunlar chiqara oladi. Chunki qonun chiqaruvchi xalq orasidan saylansa, jamiyat uchun muvofiq qonunlar qabul qilinadi va saylangan kishi xalq turmush-tarzini yaxshi biladi.

Farobiy shahar-davlatni ikkiga: yaxshilikka va ezgulikka, ilm-ma'rifatga asoslangan shahar-davlat hamda nodonlik va johillikka asoslangan shahar-davlatga ajratdi. Aholining o'zaro yordamiga asoslangan shaharni ideal shahar deb, atadi. O'zaro yordam va do'stlik asosida birlashish baxtga erishishning zaruriy va muhim shartidir. Farobiy ideal davlatni sog'lom inson organizmiga o'xshatadi: tananing barcha a'zolari bir-biri bilan o'zaro bog'langanligi va o'zaro yordam berishi organizm hayot faoliyatining asosidir, deydi. Ko'rinib turibdiki,

Farobiy jamiyatni birgalikda, hamjihatlikda yashashga undaydi.

Undan tashqari, u "Agar shahar o'z qonunchiligida haqiqiy muhabbat, yuksak axloq, barkamol aqlga ega bo'lmasa, uning qismati halokat va parokandalik boladi, agarda bu uch (go'zal nuqtalar) bo'lsa, albatta u farovonlik va baxtga yetishadi", - desa, boshqa bir holatda "Boshqaruv ham qonunlarning soniga va qadriyatiga bog'liq. Yaxshi boshqaruv yaxshi qonunlarga bog'liq, yomon boshqaruv - yomon qonunlarga, yetuk boshqaruv - yetuk qonunlarga bog'liq", - deydi. [8]

Bu bilan Abu Nasr Farobiy jamiyat hayoti, uning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, farovonligi bevosita davlat boshqaruv asoslariga, chiqarilgan hukm va qonunlarga bog'liqdir degan g'oyani ilgari surgan.

Farobiyning fikricha, insonning taqdiri avvaldan belgilangan emas, har bir shaxs o'zi yaratadi, taqdirini o'zi hal qiladi. Yaratilishidan insonlar bir xil, lekin tarbiya, muhit ta'siri ostida ular o'zgaradilar. Olim bu o'rinda tarbiyaga katta ahamiyat beradi. [9]

Shunday qilib, Farobiy inson shakllanishida uning atrofidagi insonlar asosiy o'rin egallashi va bu uning tarbiyasi bilan bog'liq ekanligini, inson o'z hayotini o'zi yaratishini katta mahorat bilan yoritib bergan.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Uyg'onish davrida Sharqda deyarli barcha mutafakkirlar ijtimoiy tuzumni tubdan rivojlantirishni istaganlar va bu borada o'z fikrlarini bayon qilgan. Biz buyuk mutafakkirlarimizning jamiyat, davlat boshqaruvi va yana muhim fikrlarini yanada kengroq tahlil qilib, organganlarimizni amaliy hayotda ham qo'llashimiz kerak va iloji boricha davlatni har tomonlama kamchiliklarsiz, inson haq-huquqlarini hisobga olgan holda boshqarilishi kerak. Buning uchun mamlakatda yanada ko'proq shart-sharoitlar bilan ta'minlanishi kerak va hali o'rganilmagan adabiyotlarni o'rganishga e'tibor qaratishimiz lozim.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalari faoliyatini kengroq rivojlantirib, fuqarolar haq-huquqlarini, siyosiy bilimni hamda siyosiy ongini oshirishimiz kerak. Agar biz jamiyatning siyosiy faolligini oshirsak, jamiyatda shundagina



rivojlanish bo'lishi mumkin, chunki xalqning siyosiy bilimi yetarli bo'lsa, jamiyatda adolatsizliklar, korrupsiya holatlari keskin kamayadi.

Mamlakatimizda siyosiy faolligini oshirish, Vatan tuyg'usi va milliy qadriyatlarni, an'analarimizni saqlash maqsadida buyuk allomalarimizning nodir asarlarni yanada ko'proq chop etish, kutubxona va muzeylar sonini yanada oshirish, yoshlarni bu asarlarni o'rganishiga undash va shu bo'yicha musobaqalar o'tkazish, milliylikni targ'ib qiladigan film, roliklar yaratish va uni keng ommaga namoyon etish orqali biz mutafakkirlarimizning asarlarida keltirilgan

adolatli jamiyatni barpo etishimiz mumkin. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan bu boradagi islohotlar ham ma'lum darajada ijobiy natijalar ko'rsatmoqda. Masalan, teleradiokanallar orqali yurtimiz allomalarining ibratli hayoti va boy ilmiy-ma'naviy merosi haqida ko'rsatuvlar va davra suhbatlari tashkil etilganligi va h.k lar bunga yaqqol misol bo'lishi mumkin.

Bir so'z bilan aytganda, Uyg'onish davri yangi davr uchun asos bo'ldi va keyingi yangi davrda sodir boladigan o'zgarishlar uchun asos bolib xizmat qildi. Chunki bu davrda bizning buyuk mutafakkirlarimiz jahon hamjamiyatiga munosib o'z hissasini qo'shdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistondagi islom svilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5681-sonli qarori.
2. H.Pulatov, Q.Sulaymonov. Siyosatshunoslikka kirish (Nazariy-metodologik va tarixiy tomonlari). -T., "Farg'ona", 1994. 90-bet.
3. O'sha manba.
4. F.Sulaymonova. Sharq va G'arb (Qadimiy davr va orta asrlar madaniy aloqalari). -T.: "Ozbekiston". 1997. 236-bet.
5. A.Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. -T., "Fan", 1968. 16-17-bet.
6. C.M.Xotamiy. Islom tafakkuri tarixidan. -T., 2003, 78-bet.
7. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. -T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993, 42-bet.
8. O'sha manba. 32-bet.
9. F.Sulaymonova. Sharq va G'arb (Qadimiy davr va orta asrlar madaniy aloqalari). -T., "Ozbekiston". 1997.